XORAZM VILOYATI YANGIBOZOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 15-aprel 120-12-178-Q/25 Yangibozor tuman hokimligi

Boʻsh turgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat roʻyxatidan oʻtkazish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-noyabrdagi 410-sonli qarorining 1-band g) kichik bandi uchinchi xatboshisi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishida dehqon xoʻjaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-20-sonli qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarorlari va Oʻzbekiston Respublikasi Yer kodeksining 451-moddasi hamda "Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida"gi qonunining 6, 10-moddalariga asosan

Qaror qilaman:

1. Zaxira yer fondiga qaytarilgan yer maydonlari ilovaga muvofiq davlat mulki sifatida davlat roʻyxatidan oʻtkazilsin va tuman hokimligi Davlat kadastrlari palatasi Yangibozor tumani filialiga buyurtma bersin.

2. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali rahbari (R.Nurmetov) tuman hokimligi buyurtmasiga asosan boʻsh turgan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat roʻyxatidan oʻtkazish va kadastr hujjatlarni rasmiylashtirish ishlarini amalga oshirsin hamda yer hisobotiga tegishli oʻzgartirishlar kiritsin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari - tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi boʻsh turgan yer maydonlarini davlat mulki sifatida davlat roʻyxatidan oʻtkazish ishlarining tuman mahalliy budjeti mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilishini taʻminlasin.

4. Tuman hokimining qishloq va suv masalalari boʻyicha oʻrinbosari – tuman qishloq xoʻjaligi boʻlimi boshligʻi (B.Sultanov) "Oʻzdavyerloyiha" ilmiy-loyihalash instituti "Xorvilyerloyiha" boʻlinmasiga boʻsh turgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yer maydonlarini qishloq xoʻjaligi korxonasi yoki dehqon xoʻjaligi tashkil etish boʻyicha lotlarga boʻlib, ochiq elektron tanlovga chiqarish uchun taqdim qilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi hamda tuman hokimining qishloq va suv

masalalari boʻyicha oʻrinbosari - tuman qishloq xoʻjaligi boʻlimi boshligʻi B.Sultanovlar zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **R.Jumaniyazov**

Yangibozor tumani hokimining
2025-yil 15-apreldagi
120-12-178-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Yangibozor tumanidagi fermer xo‘jaliklar va tashkilotlardan tuman zaxirasi nomiga olingan yer maydonlari to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

№	Hudud nomi	Fermer xo‘jaliklar nomi	Yo‘nalish	Kontur raqami	Umumiy yer maydoni (gektar)	Shu jumladan							
						Ekin yer maydoni (gektarda)	Bog‘zor (gektar)	Bo‘z yer (gektar)	Qishloq xo‘jalik yer turlari jami (gektar)	Suv ostidagi yer maydonlar (gektar)		Yo‘l osti yerlar (gektar)	Qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar (gektar)
										Jami (gektar)	Kanal va kallektorlar (gektar)		
1	Qalandardo‘rman	Ruslon Shoxista	Bog‘dorchilik	170q	0,1					0,1	0,1		
				172q	1,8		1,8		1,8				
				173q	0,2		0,2		0,2				
				174q	0,2					0,2	0,2		
				272q	0,1					0,1	0,1		
				354q	2,3		2,0		2,0	0,3	0,3		
				457q	2,0		2,0		2,0				
				458q	0,2					0,2	0,2		
2	Shirinqo‘ng‘irot	Istiqlol-1	Paxta - g‘allachilik	714q	3,3	3,3			3,3				
				718q	0,7	0,7			0,7				
3	Cho‘bolonchi	Norim bobo	Paxta - g‘allachilik	58	8,4	8,2			8,2	0,2	0,2		
4	Bo‘zqal’a	Yangibozor yangi tayyorlov	Chorvachilik	57q	1,0	1,0			1,0				

	Yangibozor tumani jami	**12**	**20,3**	**13,2**	**6,0**		**19,2**	**1,1**	**1,1**		